

OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

“BAI`SOFTWARE” xizmatlaridan foydalanish bo'yicha shartnoma

Ushbu hujjat “BAI`SOFTWARE” (keyingi o'rinlarda — Ijrochi) tomonidan ko'rsatiladigan dasturiy xizmatlardan foydalanish tartibi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, to'lov shartlari va boshqa yuridik jihatlarni belgilovchi, jismoniy va yuridik shaxslarga qaratilgan ommaviy oferta hisoblanadi.

Mazkur Oferta shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining **353–358, 367–377, 369, 1036-moddalari**, shuningdek, Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalarining (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi 185-son qaroriga 1-ilova) **6–7, 10, 12, 24–26, 29-bandlariga** muvofiq tartibga solinadi va talqin qilinadi.

“**BAI`SOFTWARE**” (Reklama va boshqa mustaqil manbalarda: **bai•software** yoki **bai**) – bu Buyurtmachilarga biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamlashtirish va optimallashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy-apparat yechimlarini taqdim etuvchi servis bo'lib, uning tarkibiga kiruvchi xizmatlar, funksiyalar va texnik imkoniyatlar ushbu ofertada keltirilgan qoidalariga muvofiq tartibga solinadi.

Buyurtmachi tomonidan ushbu ofertaga muvofiq tarzda **aksept** (ya'ni xizmat uchun to'lov amalga oshirilishi, ro'yxatdan o'tish yoki servislardan foydalanishni boshlash) bajarilgani, Buyurtmachining ushbu shartlarda belgilangan barcha bandlar bilan **to'liq va so'zsiz roziligi** sifatida e'tirof etiladi.

“BAI`SOFTWARE” xizmatlaridan foydalanish — bu ro'yxatdan o'tgan, to'lovni amalga oshirgan Buyurtmachi uchun platformaga masofaviy kirish huquqini ochish, dastur vositalarini ishlatish va zarur texnik yordamni ko'rsatish jarayonidir.

Ushbu hujjatda quyidagi atama va iboralar qo'llaniladi:

1.1.1. Ommaviy oferta – veb-saytda e'lon qilingan va Buyurtmachi (jismoniy va yuridik shaxslar)lar uchun mo'ljallangan taklif

1.1.2. Buyurtmachi – dasturiy ta'minotdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan tomon.

1.1.3. Veb-sayt – dasturiy ta'minot xizmatlarini taklif etuvchi elektron platforma.

1.1.4. Ilova (Application) — Kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan, xizmat ko'rsatishni texnik jihatdan ta'minlovchi dasturiy ta'minot bo'lib, foydalanuvchiga o'z akkaunti orqali tizim funksiyalaridan foydalanish, hisob-kitoblarni yuritish, ma'lumotlarni saqlash va boshqarish imkonini beruvchi interfeysdir. Ilova orqali taqdim etiladigan barcha funksiyalar mazkur Oferta va Kompaniya siyosatlarini bilan tartibga solinadi.

1.1.5. Xizmat ko'rsatish – Dasturiy-apparat kompleksi orqali Internet tarmog'i yordamida (Bulutli model) yoxud Buyurtmachining mahalliy qurilmasiga o'rnatilgan **Lokal Server Yechimi** yordamida taqdim qilinadigan dasturiy ta'minot xizmatlari.

1.1.6. Dasturiy-apparat kompleksi — Ijrochi tomonidan ijaraga olingan va Buyurtmachiga faqat dasturiy ta'minot bilan birgalikda foydalanish huquqi asosida **masofaviy (bulutli) taqdim etiladigan** server va dasturiy vositalar majmui. Ushbu kompleksda Buyurtmachining Axborot materiallari saqlanadi, qayta ishlanadi va uzatiladi.

Izoh: Server — Buyurtmachining Axborot materiallari, ma'lumotlar bazalari, fayllari va ularga oid texnologik jarayonlarni saqlash, qayta ishlash va uzatishni ta'minlovchi, ijaraga olingan yoki buyurtmachining mahalliy qurilmasiga o'rnatilgan apparat va dasturiy vositalar to'plami.

1.1.7. Lokal Server Yechimi (On-Premise) — Dasturiy ta'minot nusxasi bo'lib, u Buyurtmachining o'z mahalliy apparat vositasiga o'rnatiladi. Ushbu yechim uchun taqdim etiladigan litsenziya **"Qurilmaga bog'langan"** xususiyatga ega bo'lib, u faqat dastur o'rnatilgan qurilmaning noyob identifikatsiya raqamiga (Hardware ID) asosan faollashtiriladi.

1.1.8. Ro'yxatdan o'tish – Buyurtmachining shaxsiy hisob (akkaunt) ochish jarayoni bo'lib, bu harakat shartnomani qabul qilish sanaladi.

1.1.9. Shaxsiy hisob (akkaunt) — Buyurtmachining avtorizatsiya ma'lumotlari, Akkauntga birlashtirilgan domen hamda Buyurtmachiga tegishli Axborot materiallarining tegishli dasturiy-apparat infratuzilmasida saqlanishi, qayta ishlanishi va Buyurtmachini identifikatsiya qilishni ta'minlaydigan ma'lumotlar majmui.

1.1.10. Domen manzili – Buyurtmachining shaxsiy kabinetiga biriktirilgan Internet domen (yoki subdomen) nomi.

1.1.11. Sinov (demo) rejimi – dasturiy ta'minot xizmatlarini Buyurtmachi tomonidan cheklangan muddatda tajribaviy tarzda sinovdan o'tkazish imkoniyati.

1.1.12. Qo'llab-quvvatlash materiallari – dasturiy ta'minotning funksiyalari va qobiliyatlarini tushuntiruvchi ko'rsatmalar majmuasi.

1.1.13. Aksept – oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilish harakati.

1.1.14. Tarif rejasi – xizmatlar uchun belgilangan to'lov miqdori va foydalanish qoidalari.

1.1.15. Kontent – Buyurtmachiga taqdim qilingan veb-saytda joylashtirilgan barcha axborot va resurslar.

1.1.16. Shaxsiy ma'lumotlar – Buyurtmachining shaxsini aniqlashga imkon beruvchi ma'lumotlar.

1.1.17. Dasturiy ta'minotdan foydalanish – xizmatlarga kirish va ulardan foydalanish huquqi.

1.1.18. SMS-xizmat – matnli xabarlar yuborish xizmati.

2-bo'lim. Shartnoma predmeti

2.1. Ijrochi Buyurtmachiga Dasturiy ta'minotdan foydalanish bo'yicha eksklyuziv bo'lmagan, boshqa shaxsga o'tkazilmaydigan va hududiy jihatdan cheklanmagan (butun dunyo bo'ylab) foydalanish huquqini (litsenziyani) taqdim etadi, Buyurtmachi esa belgilangan xizmat haqi uchun to'lov amalga oshiradi.

2.2. Xizmat ko'rsatish shakli dasturiy ta'minot imkoniyatiga va Buyurtmachining tanloviga ko'ra ikki usulda amalga oshirilishi mumkin:

- **Bulutli (Cloud) model:** Dasturiy ta'minot Ijrochining masofaviy serverida (Dasturiy-apparat kompleksi) joylashadi va unga onlayn kirish huquqi beriladi.
- **Mahalliy (On-premise) model:** Dasturiy ta'minot (Lokal Server Yechimi) Buyurtmachining o'z qurilmasiga (serveriga yoki shaxsiy kompyuteriga) o'rnatiladi.

2.3. Lokal Server Yechimi bilan ishlash bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish shartlari va Buyurtmachining texnik javobgarligi shartnomaning 1-sonli Ilovasida belgilanadi.

2.4. Dasturiy ta'minotning imkoniyatlari va tavsifi veb-saytda keltirilgan.

2.5. Dasturiy ta'minotdan foydalanish kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun tartibida taqdim etiladi.

2.6. Dasturiy ta'minot "MAVJUD HOLATIGA ASOSAN" ("AS IS") tamoyili asosida taqdim qilinadi; mavjud kamchiliklar uchun Ijrochi javobgar hisoblanmaydi.

2.7. Xizmatlar to'lov va autentifikatsiya ma'lumotlari qabul qilingandan keyin taqdim etila boshlaydi.

3-bo'lim. Oferta qabul qilish tartibi

- **3.1.** Oferta veb-saytda e'lon qilinishi bilan ommaviy taklif maqomini oladi.
- **3.2.** Aksept – oferta shartlariga to'liq va so'zsiz qo'shilish orqali amalga oshiriladi. Buyurtmachi tomonidan to'lov amalga oshirilishi yoki Shaxsiy kabinetda "Roziman" tugmasini bosishi ushbu Shartnomaning barcha shartlariga rozilik bildirganligini anglatadi.
- **3.3.** Ro'yxatga olish sahifasida ma'lumotlarni kiritib, shaxsiy hisob ochish aksept sifatida qabul qilinadi.
- **3.4.** Ommaviy oferta yozma shartnomaga teng kuchga ega.
- **3.5.** Tomonlar elektron shaklda yuborilgan xabarlarning yuridik kuchini tan oladi.
- **3.6.** Lokal Server Yechimi uchun Ijrochi tomonidan taqdim etilgan Litsenziya kalitining (Activation Key) dasturga kiritilishi va muvaffaqiyatli faollashtirilishi aksept sifatida qabul qilinadi.

4-bo'lim. Shaxsiy kabinet va domenlardan foydalanish qoidalari

4.1. Shaxsiy kabinet ochish

4.1.1. Buyurtmachi xizmatlardan foydalanish uchun dasturiy ta'minot interfeysida shaxsiy hisobini ro'yxatdan o'tkazishi shart.

4.1.2. Ro'yxatdan o'tish orqali Buyurtmachi oferta shartlarini to'liq qabul qilgan hisoblanadi.

4.1.3. Buyurtmachi o'z xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan uning akkaunti orqali amalga oshirilgan

har qanday harakatlar uchun to'liq moddiy va yuridik javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

4.2. Domen va maxfiylik talablari

4.2.1. Buyurtmachining shaxsiy hisobini uchinchi shaxsga topshirish taqiqlanadi.

4.2.2. Domen manzili Ijrochiga tegishli bo'lib, Buyurtmachi uni faqat xizmatlar uchun to'lov amalga oshirilgan davrda ishlatish huquqiga ega.

4.2.3. Shartnoma tugagandan so'ng domen Ijrochiga qaytariladi yoki boshqa Buyurtmachiga topshirilishi mumkin.

4.2.4. Buyurtmachi o'z tomonidan shaxsiy hisob ma'lumotlarini maxfiy saqlashga va ulardan uchinchi shaxslar foydalanmasligini ta'minlashga majbur.

5-bo'lim. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash

5.1. Ijrochi quyidagilarni kafolatlaydi:

5.1.1. Shaxsiy ma'lumotlar egalarining huquqlariga rioya qilish;

5.1.2. Zarur roziliklar olinganligini;

5.1.3. Qonunchilik tamoyillariga amal qilish;

5.1.4. Shartnoma tugagandan keyin 3 ish kuni ichida dasturiy ta'minotdagi shaxsiy ma'lumotlarni o'chirish.

6-bo'lim. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

6.1. Ijrochining huquq va majburiyatlari

6.1.1. Oferta va tariflarni bir tomonlama o'zgartirish huquqi;

6.1.2. Servisga kirishni bloklash yoki cheklash huquqi;

6.1.3. Texnik va profilaktik ishlar olib borish uchun vaqtinchalik to'xtatish;

6.1.4. Qonunga xilof kontentni o'chirish huquqi;

6.1.5. Anonim statistik ma'lumotlarni qayta ishlash;

6.1.6. Shaxsiy ma'lumotlarni qonunchilikka muvofiq qayta ishlash;

6.1.7. Ijrochi shartnoma bekor qilingan kundan boshlab Buyurtmachi ma'lumotlarini 60 kalendar kuni davomida saqlash huquqiga ega (Bulutli model uchun).

6.1.8. Ijrochi Dasturiy ta'minotning yagona muallifi va egasi hisoblanadi. Buyurtmachiga dasturni kodini o'rganish (reverse engineering), o'zgartirish, nusxalash yoki uning asosida yangi dastur yaratish qat'iyan man etiladi.

6.2. Buyurtmachining majburiyatlari

6.2.1. Servisdan faqat berilgan huquqlar doirasida foydalanish;

6.2.2. To'lovni belgilangan muddatda amalga oshirish;

6.2.3. Login va parol maxfiyligini ta'minlash;

6.2.4. Faqat qonuniy maqsadlarda foydalanish;

6.2.5. Hisob balansini muntazam kuzatib borish.

6.2.6. Lokal Server Yechimi tanlanganda, Buyurtmachi server qurilmasining uzluksiz ishlashi, xavfsizligi, ma'lumotlarning zaxira nusxalarini (backup) yaratish va hosting (internet aloqasi) uchun to'liq javobgar bo'ladi. Buyurtmachi Ijrochi tomonidan taqdim etilgan "Minimal Texnik Talablar" ga mos kelmaydigan uskunalaridan foydalanganda yuzaga keladigan dasturiy uzilishlar yoki sekin ishlash holatlari uchun e'tiroz bildirishga haqli emas.

6.2.7. Buyurtmachi dastur o'rnatilgan mahalliy serverga Ijrochi ruxsatisiz tashqi o'zgartirish kiritishi yoki tizim kodini o'zgartirishi taqiqlanadi.

6.2.8. Litsenziyaning qurilmaga bog'liqligi: Lokal Server Yechimi uchun berilgan litsenziya kaliti (aktivatsiya kodi) faqat dastlab o'rnatilgan qurilma (kompyuter/server) uchun amal qiladi.

6.2.9. Lokal Server yechimi uchun qurilma nosozligi va litsenziyani qayta tiklash shartlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Agar Dastur o'rnatilgan Buyurtmachining qurilmasi ishdan chiqsa (kuysa, buzilsa yoki almashtirilsa), litsenziya quyidagi tartibda qayta taqdim etiladi:

- a) Kafolatli davr:** Litsenziya faollashtirilgan sanadan boshlab **30 (o'ttiz) kalendar kuni** ichida qurilma ishdan chiqqan taqdirda, Ijrochi tomonidan yangi qurilma uchun **1 (bir) martalik bepul** qayta litsenziyalash amalga oshiriladi. Buning uchun Buyurtmachi qurilma nosozligini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etishi lozim.
- b) Pullik davr:** Litsenziya faollashtirilganidan **30 (o'ttiz) kundan so'ng** qurilma ishdan chiqqan taqdirda, avvalgi litsenziya o'z kuchini yo'qotgan (kuygan) hisoblanadi. Yangi qurilmaga dasturni

o'rnatish va faollashtirish uchun Buyurtmachi amaldagi tariflarga muvofiq **yangi litsenziya sotib olishi** shart(Texnik qayta faollashtirish narxida, 50% chegirma bilan).

6.2.10. Litsenziya narxi xizmat ko'rsatish hajmi va tanlangan tarif rejasidan kelib chiqqan holda qayta hisoblanadi.

6.2.11. Korporativ va hamkorlik standartlariga rioya qilish: Buyurtmachi shuni tan oladiki, Ijrochi o'z faoliyatini yuritishda uchinchi tomonlar (texnologik hamkorlar, litsenziarlar, investorlar va h.k.) bilan tuzilgan korporativ shartnomalar majmuasiga amal qiladi. Agar Ijrochining ushbu korporativ shartnomalari Buyurtmachidan ma'lum qoidalarga rioya qilishni, yangi standartlarni qabul qilishni yoki faoliyatini muvofiqlashtirishni taqozo etsa, Buyurtmachi ushbu talablarni bajarishga va Ijrochining tegishli ko'rsatmalariga asosan ish olib borishga so'zsiz rozilik beradi.

6.3. Buyurtmachining huquqlari

6.3.1. Kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun foydalanish huquqi;

6.3.2. Tarifni tanlash va o'zgartirish huquqi;

6.3.3. Texnik yordam olish huquqi;

6.3.4. Shartnomani 7 kun oldin ogohlantirib bekor qilish huquqi.

7-bo'lim. Tomonlarning javobgarligi

7.1. Ijrochi javobgar hisoblanmaydigan holatlar

7.1.1. Buyurtmachining uskunasi, internet aloqasi yoki qurilmalari nosoz bo'lishi;

7.1.2. Buyurtmachi harakatlari natijasida ma'lumotlar yo'qolishi;

7.1.3. Fors-major holatlari, texnik uzilishlar, aloqa muammolari;

7.1.4. Buyurtmachi tomonidan joylashtirilgan kontent;

7.1.5. Login va parol uchinchi shaxsga o'tib ketishi;

7.1.6. Lokal Server Yechimi qo'llanilganda: Buyurtmachi serverining apparat nosozligi (temir buzilishi), operatsion tizim xatolari yoki zaxira nusxalash amalga oshirilmaganligi natijasida ma'lumotlarning yo'qolishi;

7.1.7. Buyurtmachining mahalliy tarmog'idagi viruslar, kiber-hujumlar yoki uchinchi shaxslarning serverga kirishi natijasida yetkazilgan zararlari.

7.1.8. Hech qanday holatda Ijrochi Buyurtmachining ko'rgan bilvosita zararlari, boy berilgan foydasi, ishbilarmonlik obro'siga putur yetishi yoki mijozlarini yo'qotishi uchun javobgar bo'lmaydi.

7.1.9. Ijrochining ushbu Shartnoma bo'yicha har qanday da'volar yuzasidan umumiy javobgarligi, Buyurtmachi tomonidan oxirgi 3 (uch) oy davomida to'langan xizmat haqi miqdoridan oshmasligi kerak.

7.2. Buyurtmachining javobgarligi

7.2.1. Servisdan foydalanishda qonunbuzarlik sodir etish;

7.2.2. Uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararlari;

7.2.3. Login va parol orqali amalga oshirilgan barcha harakatlar;

7.2.4. Ijrochiga yetkazilgan zararlarni to'liq qoplash.

8-bo'lim. Fors-major holatlari

8.1. Fors-major holatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

8.1.1. Tabiiy ofatlar, urush holati, davlat cheklovlari, aloqa tarmog'i ishdan chiqishi;

8.1.2. Majburiyatlarning bajarilishi fors-major holati tugaguniga qadar kechiktiriladi;

8.1.3. Agar fors-major 30 kundan ortiq davom etsa, tomonlar shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'ladi, zarar undirish talabi qo'yilmaydi.

9-bo'lim. Maxfiylik siyosati

9.1. Maxfiy hisoblanadigan ma'lumotlar

9.1.1. Tijorat siriga oid hujjatlar;

9.1.2. Texnik ma'lumotlar va dasturiy kodlar;

9.1.3. Moliyaviy ma'lumotlar;

9.1.4. Mijozlar bazasi;

9.1.5. Parollar va kirish ma'lumotlari;

9.1.6. Boshqa cheklangan foydalanishdagi ma'lumotlar.

9.2. Maxfiylik shartlari

9.2.1. Maxfiy ma'lumotlar faqat shartnomani bajarish maqsadida ishlatiladi;

9.2.2. Uchinchi shaxslarga oshkor qilish qat'iy man etiladi, vakolatli davlat organlarining rasmiy yozma so'rovi asosida ma'lumot taqdim etish hollari bundan mustasno. Bunda imkon qadar Buyurtmachi bu haqda oldindan xabardor qilinadi.

9.2.3. Maxfiylikni saqlash majburiyati shartnoma tugagandan keyin ham 3 yil davomida davom etadi.

10-bo'lim. To'lov tartibi

10.1. Tariflar veb-saytda e'lon qilingan ro'yxat asosida qo'llaniladi.

10.2. To'lovlar naqd pul, bank o'tkazmasi yoki elektron to'lov usullari orqali amalga oshiriladi.

10.3. To'lov amalga oshirilgandan keyin 1 ish kuni ichida xizmat faollashtiriladi.

10.4. To'lov qaytarilmaydi, faqat Ijrochi aybi bilan xizmat ko'rsatilmagan hollarda alohida tartibda ko'rib chiqiladi.

10.5. Balansdagi mablag'larga foiz hisoblanmaydi.

10.6. Avtomatik to'lov yechib olish huquqi Buyurtmachida mavjud.

10.7. Agar O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida o'zgarishlar ro'y bersa (masalan, QQS stavkasi o'zgarsa), Ijrochi tarif narxlarini mos ravishda o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

10.8. Lokal Server Yechimida foydalanilayotgan qurilma (server) almashtirilganda yoki nosoz holga kelganda (30 kunlik muddat o'tgach), yangi litsenziya kalitini olish uchun to'lov, xuddi yangi xarid kabi, to'liq hajmda yoki Tomonlarning alohida kelishuviga asosan (shuningdek ushbu Ofertaning **6.2.9. (b)** bandiga muvofiq) amalga oshiriladi.

11-bo'lim. Shartnomani bekor qilish tartibi

11.1. Shartnoma o'zaro kelishuv bilan istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

11.2. Buyurtmachi bir tomonlama bekor qilmoqchi bo'lsa, kamida 7 kun oldin yozma xabar yuborishi zarur.

11.3. Ijrochi quyidagi hollarda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega: shartlar buzilganda, to'lov amalga oshirilmaganda (to'lov muddati belgilangan kundan boshlab to'lovni 30 kalendar kuni davomida to'lamaslik shartnoma bekor qilinishi uchun asos bo'ladi), shuningdek qonunga xilof foydalanish holatida.

11.4. Shartnoma bekor qilingandan keyin: Buyurtmachining servisga kirish huquqi to'xtatiladi, shaxsiy kabinet bloklanadi, ma'lumotlar qonunchilikka muvofiq saqlanadi yoki o'chiriladi.

12-bo'lim. Shartnomaning amal qilish muddati

12.1. Shartnoma Buyurtmachi tomonidan aksept qilingan kundan (to'lov amalga oshirilgan kundan) kuchga kiradi.

12.2. Amal qilish muddati tanlangan tarif rejasiga muvofiq belgilanadi va keyingi davr uchun to'lov amalga oshirilsa avtomatik uzaytiriladi.

12.3. Amal qilish davrida shartlar veb-saytda e'lon qilingan sanadan e'tiboran o'zgartirilishi mumkin.

13-bo'lim. Yakuniy qoidalar

13.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

13.2. Nizolar birinchi navbatda muzokara yo'li bilan hal qilinadi; 30 kun ichida kelishuvga erishilmasa, nizo Ijrochi ro'yxatdan o'tgan hududdagi Tumanlararo Iqtisodiy sudi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan ko'rib chiqiladi.

13.3. Shartnomaning barcha ilovalari, xususan 1-sonli llova (Lokal Server yechimi reglamenti) ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

13.4. Elektron shaklda tuzilgan shartnomaning yuridik kuchi haqiqiylikini kamaytirmaydi.

13.5. Buyurtmachi shartnomani qabul qilish orqali o'z roziligini bildirgan holda shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi.

“BAI`SOFTWARE” XIZMATLARIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA OMMAVIY OFERTAGA 1-SONLI ILOVA

LOKAL SERVER YECHIMI (ON-PREMISE) REGLAMENTI VA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH SHARTLARI

1. Umumiy qoidalar 1.1. Mazkur Ilova Buyurtmachi tomonidan “Lokal Server Yechimi” (Dasturiy ta’minotni Buyurtmachining o‘z qurilmasiga o‘rnatish) tanlangan hollarda qo‘llaniladi. 1.2. Ushbu Ilova Dasturiy ta’minotni o‘rnatish, sozlash, litsenziyalash va texnik qo‘llab-quvvatlash chegaralarini belgilaydi.

2. Minimal texnik talablar 2.1. Dasturiy ta’minotning barqaror ishlashi uchun Buyurtmachi o‘z hisobidan quyidagi minimal talablarga javob beruvchi apparat vositasini (Server/Kompyuter) ta’minlashi shart:

- **Protsessor (CPU):** Intel Core i5 (10-avlod va undan yuqori) yoki shunga tenglashtirilgan AMD Ryzen;
- **Operativ xotira (RAM):** Kamida 8 GB (tavsiya etiladi: 16 GB);
- **Doimiy xotira (Disk):** Kamida 128 GB SSD (HDD tavsiya etilmaydi);
- **Operatsion tizim:** Windows 10/11 (64-bit);
- **Internet tezligi:** Kamida 10 Mbit/s (barqaror ulanish).

2.2. Agar Buyurtmachining uskunasi ushbu talablarga javob bermasa, Ijrochi dasturning sekin ishlashi yoki qotib qolishi yuzasidan kelib tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqmaslik huquqiga ega.

3. O‘rnatish va Litsenziyani faollashtirish

3.1. Dasturiy ta’minotni o‘rnatish va sozlash jarayoni Ijrochi mutaxassislari tomonidan masofaviy ulanishni ta’minlovchi ixtisoslashgan dasturiy vositalar (xususan, AnyDesk, TeamViewer va shu kabilar) yordamida amalga oshiriladi.

3.2. Litsenziyani faollashtirish **"Qurilmaga qat'iy bog'langan"** tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bunda dastur o‘rnatilayotgan kompyuterning asosiy texnik butlovchi qismlari (Ona plata/Motherboard, Markaziy protsessor/CPU va Qattiq disk/HDD/SSD) seriya raqamlari asosida shakllantirilgan noyob apparat identifikatori (**"Hardware ID"**) tizimda ro‘yxatga olinadi va litsenziya kaliti faqat ushbu identifikatorga ega qurilma uchun generatsiya qilinadi.

3.3. Muhim ogohlantirish: Yuqorida sanab o‘tilgan butlovchi qismlarning (birining yoki bir nechasining) Buyurtmachi tomonidan almashtirilishi yoki o‘zgartirilishi "Hardware ID"ning o‘zgarishiga olib keladi. Bunday holatda, avval taqdim etilgan litsenziya o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi va **bu holat Ijrochi zimmasiga litsenziyani bepul qayta tiklab berish majburiyatini yuklamaydi.**

4. Uskuna nosozligi va Litsenziyani ko‘chirish (Kafolat shartlari) 4.1. Litsenziya kaliti faqat birlamchi faollashtirilgan jismoniy qurilma uchun amal qiladi. 4.2. Buyurtmachining kompyuteri (serveri) ishdan chiqqan, singan, yo‘qolgan yoki almashtirilgan holatlarda litsenziyani qayta tiklash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- **a) Kafolatli davr (30 kun):** Litsenziya faollashtirilgan sanadan boshlab **30 (o‘ttiz) kalendar kuni ichida** kompyuter ishdan chiqsa, Buyurtmachi bu haqda Ijrochiga xabar beradi. Ijrochi eski litsenziyani bekor qiladi va yangi qurilma uchun **1 (bir) martalik bepul** litsenziya kalitini taqdim etadi.

- **b) Pullik davr (30 kundan so'ng):** Litsenziya faollashtirilganidan 30 kun o'tgach yuz bergan har qanday apparat o'zgarishi (kompyuter kuyishi, ona plata almashishi va h.k.) litsenziyaning **kuyishiga** olib keladi. Bunday holda, yangi qurilmaga dasturni o'rnatish uchun Buyurtmachi xizmat ko'rsatish hajmiga qarab, amaldagi tariflar bo'yicha **yangi litsenziya sotib olishi shart**.

5. Ma'lumotlar xavfsizligi va Zaxira nusxalash (Backup) 5.1. Lokal Server Yechimida barcha ma'lumotlar bazasi Buyurtmachining kompyuterida saqlanadi. Ijrochi Buyurtmachining ma'lumotlariga to'g'ridan-to'g'ri kirish va ularni o'z serverlarida saqlash imkoniyatiga ega emas. 5.2. **Ma'lumotlarni saqlash bo'yicha Buyurtmachining majburiyati:** Buyurtmachi ma'lumotlar bazasini muntazam ravishda (kuniga kamida bir marta) tashqi xotira qurilmasiga (Flashka, Tashqi HDD) yoki bulutli omborga (Google Drive, Telegram, Yandex Disk va shu kabilar) **zaxira nusxasini (Backup) olib borishga majburdir**. 5.3. Kompyuterning buzilishi, viruslar (Ransomware/Shirovshik), operatsion tizim xatolari yoki diskning kuyishi natijasida ma'lumotlar yo'qolsa, **Ijrochi ma'lumotlarni tiklab berish majburiyatini olmaydi va bunga javobgar emas**. 5.4. **Telegram-bot orqali avtomatlashtirilgan zaxira nusxalash (Qo'shimcha pullik xizmat):** 5.4.1. Buyurtmachining xohishiga ko'ra, Ijrochi ma'lumotlar bazasini avtomatlashtirilgan tarzda maxsus **Telegram-bot** orqali bulutli saqlash xizmatini taqdim etishi mumkin. 5.4.2. Ushbu xizmat **pullik** hisoblanadi va Ijrochining amaldagi Tariflariga muvofiq oylik yoki yillik obuna asosida amalga oshiriladi. 5.4.3. Telegram-bot orqali zaxira nusxalash xizmati yoqilgan taqdirda ham, Buyurtmachi Internet aloqasi uzilishi yoki Telegram platformasi (uchinchi tomon)dagi texnik nosozliklar sababli zaxira nusxasi yuborilmay qolishi xavfini inobatga olishi va muhim ma'lumotlarni mahalliy tashuvchilarga ham saqlab borishi tavsiya etiladi.

6. Texnik xizmat ko'rsatish chegaralari 6.1. Ijrochi tomonidan ko'rsatiladigan texnik yordam quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Dasturiy ta'minotdagi xatoliklarni (bugs) tuzatish;
- Dastur funksionalidan foydalanish bo'yicha maslahatlar berish;
- Dasturiy yangilanishlarni (updates) o'rnatish. 6.2. Quyidagi xizmatlar **bepul texnik yordam doirasiga kirmaydi** va alohida to'lov asosida (yoki uchinchi tomon mutaxassislar tomonidan) amalga oshiriladi:
- Buyurtmachi kompyuteridagi viruslarni tozalash;
- Windows operatsion tizimini o'rnatish yoki qayta o'rnatish;
- Lokal tarmoq (LAN/Wi-Fi) muammolarini hal qilish;
- Printer, skaner va shtrix-kod o'quvchi qurilmalarni kompyuterga drayver orqali ulash (Dasturga ulash bundan mustasno).

6.3. Bepul texnik xizmat davri: Lokal Server Yechimi uchun bepul texnik qo'llab-quvvatlash muddati Litsenziya faollashtirilgan kundan boshlab **30 (o'ttiz) kalendar kunini** tashkil etadi. **6.4. Pullik xizmatga o'tish:** 30 kunlik muddat o'tgach, barcha turdagi texnik yordam xizmatlari Ijrochining bajarilgan ish hajmi yuzasidan buyurtmachining to'lovi asosida amalga oshiriladi.

7. Masofaviy kirish 7.1. Nosozliklarni bartaraf etish uchun Buyurtmachi Ijrochi mutaxassisiga server kompyuteriga Internet orqali masofaviy ulanish (AnyDesk, TeamViewer va shu kabilar) imkoniyatini yaratib berishi shart. Internet aloqasi yo'qligi sababli muammoni masofadan hal qilib bo'lmasa, Ijrochi javobgar hisoblanmaydi.

Ushbu Ilova Buyurtmachi tomonidan Ommaviy Oferta aksept qilingan (qabul qilingan) paytdan boshlab kuchga kiradi va Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.